



**KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHISINING
MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH**

Odilova Sarvinoz Isoq qizi

Samarqand viloyati, Samarqand tumani 10-sonli ixtisoslashtirilgan

umumta'lim maktabi, fizika fani o'qituvchisi

Telefon: +99891 941 33 83; E-mail: odilovasarvinoz425@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy fizika darslarida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kognitiv faolligi asosida bo'lajak fizika o'qituvchisining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va fizika faniga oid kompetensiyalarni egallashida topshiriqlardan foydalanib, ularning intellektual fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularda evristik ixtirochilik va novatorlikka bo'lgan malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv yondashuv, kompetensiya, mantiqiy fikrlash, topshiriq, intellektual fikrlash, didaktika, fizika.

Ma'lumki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi negizida ta'lim mazmunidagi bilimlar, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribalari va qadriyatlarni tarkib toptirishda faqat o'quv kurslarining nazariy masalalari bilan emas, balki integrallashgan mazmun, fanlararo bog'lanish, modullar tizimidan foydalanishga o'tish, o'qitishning reproduktiv metodlari va noan'anaviy texnologiyalari bilan bir qatorda tahsil oluvchilarning ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradigan innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda ta'lim-tarbiya jarayonining yakuniy natijasini nazorat qilish va baholashda bilim, ko'nikma va malakalar paradigmasidan voz kechib ta'lim tizimini modernizatsiyalashning istiqbolli yo'nalishi sifatida qabul qilingan kompetensiyalarni nazorat qilish orqali shaxsning rivojlanganlik va tarbiyalanganlik darajasini aniqlashni yo'lga qo'yish zarurligi kiritilgan.

Mamlakatimizning oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish metodikasi bo'yicha bir qator muammolar o'z yechimini kutmoqda. Bu muammolarning aksariyati, ixtisoslik ta'lim yo'nalishidan berilayotgan bilim, ko'nikma malakalarning talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasi bugungi kun talabiga mos emasligi bilan bog'liq. Binobarin, "Oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish", "Ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish" kabi ustuvor vazifalar bo'yicha anchagina ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda bu muammolarning dolzarbligi yanada oshib, ta'lim sohasida professor o'qituvchilar hamda talabalar tomonidan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan zamonaviy talablar ta'limni innovatsion usullarda yangi mazmun bilan to'ldirish zarurligini taqozo etadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Bugungi kunda jahon miqiyosida kognitiv faollik shaxs faoliyatiga xos bo'lgan barcha bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan ilm sohasi sifatida yondashilmoqda. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, ularda mantiqiy fikrlash kompetensiyani shakllantirishda kognitiv faollikning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining maqsadlariga mos bo'lib, kognitiv faollikni rivojlantirishda muhim qadam hisoblanadi. Kognitiv faollikning yetakchi metodlaridan biri retrospektiv tahlil metodidir. Mazkur metod kognitiv yondashuv asosida bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlash sohasidagi ko'plab yo'nalishlar va g'oyalarni har tomonlama o'rganib, chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Talabalarning bo'lajak fizika o'qituvchisi sifatida kognitiv yondashuv asosida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda nostandart topshiriqlarni qo'llash uchun didaktik xususiyatlar mavjud, bunday xususiyatlar umumiy fizika fanini o'qitishda masalalar yechish, ijodiy loyiha ishlarini bajarish, laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish metodik tizimi nostandart topshiriqlar asosida zaruriy tushunchalarning mohiyatining ilmiylik tamoyili orqali tushunamiz.

Bizning fikrimizcha nostandart topshiriqlar bilan ishlash jarayonida talabalarning fizika, matematika va tabiiy fanlar umumiy holda fanlar integratsiyasi asosida ixtisoslik fanga bo'lgan qiziqishini ortishi bilan birga ularga kundalik hayotda zaruriy vaziyatlarni bajarish jarayonida noodatiy usullar va yechimlar orqali fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini kognitiv mustaqilligini shakllantirish o'qituvchilarning shaxsiy sifat va fazilatlarini munosabatini o'z ichiga oluvchi mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini egallashidir. Masalan:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, nostandart topshiriqlar bilan ishlash jarayonida talabalarning bo'lajak fizika o'qituvchisi sifatida fizika, matematika va tabiiy fanlar umumiy holda fanlar integratsiyasi asosida fanga bo'lgan qiziqishini ortishi bilan birga ularga kundalik hayotda kasbiy zaruriy vaziyatlarni bajarish jarayonida noodatiy usullar va yechimlar orqali fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini kognitiv yondashuv asosida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish talabalarning kasbiy sifat va fazilatlarini munosabatini o'z ichiga oluvchi kompetensiyalar egallanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032- son Qarori. – (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021 y., 07/21/5032/0226- son.

2. Safarova R.G. Kognitiv faollikga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya.– Toshkent, 2023.



3. Kutbedinov A.K., Toshpulatova Sh.O its. The main factors influencing the development of logical thinking skills of students in physics lessons // Solid State Technology. Volume:63. Issue 6. pp 8761-8770. Desember 29. Publikation year: 2020. Archives Available @

4. Toshpulatova Sh. O. Teoretical aspects of assessing students' logical thinking based on international timss programs//International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 09, volume 113 published September 30, 2022.

5. Toshpulatova Sh. O. Didactic model development of logical thinking of a future teacher based on creativity // Polish science journal (issue 10(43), 2021) - warsaw: sp. Z o. O. "iscience", 2021. – 158-162crp.

6. Safarova R.G. Approaches to the development of professional culture in future teachers. international journal of european research output issn: 2053-3578 I.F. 9.1 Vol.3 No.2 FEBRUARY (2024) P 15-18.

7. R.G.Safarova, G.Khasanova. Organizing an environment for cooperation of students in the educational process (for ensuring the development of the new Uzbekistan society). XVI International Scientific-Practical Conference “Actual Problems of Improving Farming Productivity and Agroecology” (IPFA 2024), E3S Weof Conferences Volume 538,2024.